

“Kelajak soati” darsining 5-8 sinflar uchun mashg‘ulot ssenariysi:

5-mavzu: “O‘qituvchi va murabbiylar kuni”

Dars maqsadi: Yangi O‘zbekistonda o‘qituvchi va murabbiylar maqomi, shogird burchi va odobi, “Ustoz-otangdan ulug” e’tirofining izohi, yurtimizda o‘qituvchi, ustoz va turli kasb ustalarining shogirdlik maktabi, ustozlarning hayotdagi o‘rnini anglatishdan iborat.

Aniq maqsadlar:

- 1.O‘quvchilarda ustoz va murabbiylarning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni, ularni shaxs kamolotidagi beqiyos hissasini anglash;
 - 2.O‘quvchilarda ustoz va murabbiylarga hurmat va ehtirom , minnatdorlik tuyg‘ularini shakllantirish hamda ularning o‘gitlarini hayotda qo‘llash ko‘nikmalarini rivojlantirish;
 - 3.O‘zbekistonda o‘qituvchi va murabbiylarning maqomi va obro‘sini oshirish yo‘lida olib borilayotgan siyosiy islohotlar bilan o‘quvchilarni tanishtirish;
 - 4.O‘quvchilarga “Ustoz-otangdan ulug” hikmatining mazmun-mohiyatini tushuntirish.
-

 **Asosiy g‘oyalar:** O‘quvchilarda ustozga hurmat va minnatdorlik hissi shakllanadi, ustozlarning mashaqqatlari mehnatlari qadrlanishi o‘rgatiladi. Har bir insonning kamolotida ustozning o‘rni beqiyos ekani, qadimdan davom etib kelayotgan ustoz-shogird munosabatlarining ahamiyati tushuntiriladi. Ustozdan olgan bilim va odobni boshqalarga yetkazish g‘oyasini targ‘ib qiladi, “Ustoz-otangdan ulug” degan hikmat mazmunini bilib oladi.

Ustoz va murabbiylar – Yangi O‘zbekistonning tayanchi, Prezident Shavkat Mirziyoyev aytganidek: “Sizlarni el-yurtning tayanchi va suyanchi deb bilamiz.

Sizlar bilan doimo faxrlanamiz”.

👉 Yaxshi ustoz o‘quvchining nafaqat bilimini, balki orzu va ishonchini ham o‘stiradi.

Darsdan keyin kutiladigan natijalar:

1. Aqliy va tushunchaviy darajada:

O‘quvchi “Ustoz”, “murabbiy”, “shogirdlik” so‘zlarining bir -biri bilan chambarchas bog‘liq ekanligini anglaydi va bu tushunchalarni farqlab ayta oladi;

Ustoz va murabbiylarning jamiyatdagi o‘rni va ahamiyatini biladi, tarixda va bugungi kunda fidokor ustozlarning qilgan xizmatlari haqida tasavvur hosil qiladi;

Ustoz va murabbiylarga nisbatan hurmatli munosabat shakllanadi.

2. Hissiy va qadriy yondashuvda:

Ustozlarning mehr-muhabbati, mehnati va fidoyiligi o‘quvchilar qalbida chuqr hurmat va minnatdorlik tuyg‘usini uyg‘otadi;

Bolada ichki “men ham ustoz bo‘lib yurtimga fidoyi insonlarni tarbiyalayman ” degan ishtirok hissi paydo bo‘ladi.

3. Amaliy ko‘nikmalarda:

Qadriyatlarni amalda qo‘llash-ustoz bergan bilim va tarbiyani hayotiy vaziyatlarda qo‘llay oladi.

4. Ijtimoiy-pedagogik jihatdan:

Jamiyat taraqqiyotida ta‘lim va tarbiya beruvchi insonlarning o‘rni beqiyos ekanini biladi.

O‘zining o‘quvchi sifatidagi burch va mas’uliyatini his qiladi.

O‘qituvchi bilan o‘quvchi o‘rtasida qadriyatlarga asoslangan muloqot paydo bo‘ladi.

 Metapredmet: bu ta’limda o‘quvchilarning faqat bir fan doirasida emas, **turli fanlar, hayotiy vaziyatlar va ijtimoiy muhitda qo‘llay oladigan umumiyo ko‘nikmalarini** shakllantirishga qaratilgan yondashuvdir.

Masalan, “O‘qituvchi va murabbiylar kuni” darsida:

Bola ustozlar haqida she’r, qo‘sinq, maqollar aytadi, rivoyatlar bilan tanishaadi (adabiyot fani),

Film tomosha qilib, taassurotini aytadi (san’at),

So‘ngra bu harakatlarlar haqida fikrlar bildiradi (muloqot),
Tarixda ustozlar haqida ma’lumotga ega bo‘ladi (tarix).

 **Dars hamkori:** Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti:
www.milliytarbiya.uz

 Dars davomiyligi: 45 daqiqa.

 **Tavsiya etilgan mashg‘ulot shakli:** bilim beruvchi suhbat, video parchalar, o‘yin elementlari va qo‘sishimcha materiallardan foydalanishni nazarda tutadi.

 Materiallar to‘plami:

ssenariy;

uslubiy tavsiyalar;

videomateriallar;

interaktiv topshiriqlar;

 **Dars tuzilishi 1 qism. Motivatsion**

Darsning birinchi qismining maqsadi - o‘quvchilarning mavzu muhokamasida faol ishtirok etishlari uchun sharoit yaratishdir. 5-8 sinf o‘quvchilarining kelgusi

faoliyatiga bo‘lgan motivatsiya mashg‘ulot mavzusini aks ettiruvchi materialni ko‘rish va muhokama qilishga asoslanadi.

2-qism. Asosiy

Bu qismda o‘quvchilar darsning asosiy ma’nolarini tushunish va ochib berishga yo‘naltiriladi. Shu maqsadda o‘quvchilarga tasviriy materialni tahlil qilish, videolarni ko‘rish va bilishga qaratilgan savollar taklif etiladi.

3-qism. Yakuniy

Dars g‘oyalarini umumlashtirish, mashg‘ulotga yakun yasash.